

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Parazitologiya» kafedrası professori A.S.Daminov tomonidan Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti 60840100 – veterinariya meditsinasi bakalavr yo‘nalishi 1 - oqim (101-104-guruh) talabalari uchun tayyorlangan “Veterinariya zoologiyasi” fanidan “Xordalilar tipi - *Chordata*” mavzusida ochiq ma’ruza darsi ishlanmasiga

T A Q R I Z

Professori A.S.Daminov tomonidan tayyorlangan ushbu ma’ruza darsi ishlanmasi “Veterinariya zoologiyasi” fanining na’munaviy dasturi hamda ishchi o‘quv dasturi (sillabusi) talablariga to‘liq mos keladi. Ma’ruza mashg‘ulot matni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, uslubiy jihatdan to‘g‘ri va puxta bayon etilgan.

Ishlanmada tayanch so‘z va iboralar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan bo‘lib, talabalar uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan metodlar va tamoyillar bosqichma-bosqich yoritilgan. Mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari aniq belgilangan, shuningdek amaliy mashg‘ulotni tashkil etishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar bayon qilingan. Unda pedagogik va o‘quv faoliyatining kutilayotgan natijalari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Dars jarayonida zamonaviy o‘qitish usullari — aqliy hujum, klaster, Assment texnikasi metodlaridan samarali foydalanilgan. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda mashg‘ulot uchun taqdimot materiallari tayyorlangan.

Mazkur dars ishlanmasida Xordalilarning sistematikasi, anatomik-morfologik xususiyatlari aniq va tushunarli tarzda bayon etilgan, ularning biologik rivojlanish jarayonlari sodda va lo‘nda ifodalangan. Bundan tashqari, mavzu yuzasidan eng so‘nggi ma’lumotlar va qiziqarli ilmiy dalillar keltirilgan.

Umuman olganda, professori A.S.Daminov tomonidan tayyorlangan ushbu dars ishlanmasi zamonaviy ta’lim texnologiyalari talablariga to‘liq javob beradi, mantiqan puxta yakunlangan hamda oliy ta’lim muassasalarida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagogik

hamda mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va

ularning malakasini oshirish instituti direktori,

professor, v.f.d. R.B. Davlatov

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti «Parazitologiya» kafedrası professori
A.S.Daminov tomonidan Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti
60840100 – veterinariya meditsinasi bakalavr yo‘nalishi 1 - oqim (101-104-
guruh) talabalari uchun tayyorlangan “Veterinariya zoologiyasi” fanidan
“Xordalilar tipi - *Chordata*” mavzusida ochiq ma’ruza darsi ishlanmasiga
T A Q R I Z**

Ushbu dars ishlanmasi “Veterinariya zoologiyasi” fanidan 60840100 – 60840100 – veterinariya meditsinasi bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun na’munaviy dastur hamda ishchi o‘quv dasturi (sillabus) asosida ishlab chiqilgan.

Dars ishlanmasida mavzuning texnologik xaritasi, darsning maqsad va vazifalari, ma’ruza darsi uchun zarur jihoz va asbob-uskunalar, foydalanilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati, topshiriqlar ma’zmuni, baholash (assessment) texnologiyalari, FSMU metodlari hamda aqliy hujum savollari o‘z aksini topgan. Mavzuda xordalilarning sistematik asoslari, morfofiziologik xususiyatlari va biologiyasi ilmiy jihatdan aniq va izchil bayon etilgan. Shuningdek, xordalilarning xalq xo‘jaligidagi ahamiyatga ega bo‘lgan vakillari hamda ularolinadigan maxsulotlar batafsil yoritilgan.

Dars ishlanmasi ixcham, sodda va tushunarli tilda yozilgan bo‘lib, talabalar tomonidan oson o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi. Mavzuga oid rasm va jadvallar o‘rinli tanlangan hamda izohlar bilan boyitilgan.

Mavzu to‘liq yoritilgan bo‘lib, unda xordalilarning hayvonot olamidagi o‘rni, sistematik tavsifi, organ va tizimlarining tuzilishi, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan sinflari va ularning turkumlariga bo‘yicha yetarli ma’lumotlar berilgan. Ushbu dars ishlanmasi talabalarda mavzu bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Professor A.S.Daminov tomonidan 60840100 – 60840100 – veterinariya meditsinasi yo‘nalishi uchun “Veterinariya zoologiyasi” fanidan tayyorlangan “Xordalilar tipi - *Chordata*” mavzusidagi ochiq ma’ruza darsi ishlanmasi ijobiy baholayman va amaliyotda foydalanish uchun tavsiya etaman.

“Veterinariya sanitariya ekspirtizasi”

kafedrası dotsenti, v.f.d.

Rasulov O‘I